

TALABALARDA SOG'LOM DINIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRUVCHI BADIY-DIDAKTIK MANBALARI

Atakulova Nargizaxon Alijonovna
Andijon davlat universiteti, 3-kurs doktoranti (DSc)
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.006>

Annotatsiya. Ushbumaqolada badiiy didaktik manbalar yordamida talabalar dasog 'lom diniy dunyoqarashni shakllantirish, komil inson tushunchasi, komil insonning ta'rif va tavsifi, komil insonga xos bo'lgan sifatlar, uning so'fiyona adabiyotda ifodalaniishi, tasavvuf adabiyotining tarbiyaviy imkoniyatlari, mazkur adabiyot yordamida yoshlarda shakllantiriladigan ma'naviy sifatlar haqida fikr yuritilgan. Maqola ma'naviy estetik masalasi bilan shug'ullanadigan tadqiqotchilar, professor o'qituvchilar, talabalar va pedagogik jamoatchilik uchun manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sog'lom diniy dunyoqarash, badiiy didaktika, ma'naviy poklik, ruhiyat, qalb osoyishtaligi, siyrat va surat birligi, intuitsiya, pedagogik ta'limot, sufiyona adabiyot, mutafakkirlar, tafakkur, sog'lom e'tiqod, komil inson.

ХУДОЖЕСТВЕННО-ДИДАКТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ, ФОРМИРУЮЩИЕ ЗДОРОВОЕ РЕЛИГИОЗНОЕ ВОЗЗРЕНИЕ У СТУДЕНТОВ

Атакулова Наргизахан Алиджоновна
Андижанский государственный университет, Докторант 3 курса (DSc)

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование здорового религиозного мировоззрения у студентов с помощью художественно-дидактических источников, понятие совершенного человека, определение и описание совершенного человека, качества, характерные для совершенного человека, его выражение в суфийской литературе, образовательные возможности суфийской литературы и духовные качества, которые можно сформировать у молодежи с помощью этой литературы. Статья служит ресурсом для исследователей, профессоров, студентов и педагогического сообщества, занимающихся проблемой духовной эстетики.

Ключевые слова: здоровое религиозное мировоззрение, художественная дидактика, духовная чистота, духовность, душевное спокойствие, единство характера и образа, интуиция, педагогическое учение, суфийская литература, мыслители, мышление, здоровая вера, совершенный человек

ARTISTIC AND DIDACTICAL RESOURCES FORMING HEALTHY RELIGIOUS VIEWS IN STUDENTS

Atakulova Nargizakhan Alijonovna
Andijan State University, 3rd year doctoral student (DSc)

Abstract. This article discusses the formation of a healthy religious worldview among students with the help of artistic and didactic sources, the concept of a perfect person, the definition and description of a perfect person, the qualities characteristic of a perfect person, its expression in Sufi literature, the educational possibilities of Sufi literature and the spiritual qualities that can be formed in young people with the help of this literature. The article serves as a resource for researchers, professors, students and the teaching community dealing with the issue of spiritual aesthetics.

Key words: healthy religious worldview, artistic didactics, spiritual purity, spirituality, peace of mind, unity of character and image, intuition, pedagogical teaching, Sufi literature, thinkers, thinking, healthy faith, perfect person.

MAVZUNING DOLZARBLIGI. Sog'lom diniy dunyoqarashning asosini komil inson g'oyasi tashkil etadi. Komil inson deganda barcha dunyoviy hamda diniy bilimlarni o'zlashtirgan, ma'naviy jihatdan yuksalgan, qalbi pok, siyrati bilan surati o'zaro mutanosib,

ezgulikka moyil inson tushuniladi. Mumtoz adabiyotda Alisher Navoiy o‘zining asarlarida o‘zi ham qalbi pok kishilar haqida quyidagi fikrlarni aytgan:

“Foniy va sheki, ham so‘zidur pok, ham o‘zi,

Xush davlat ul kishigaki, tushgay aning ko‘zi” [2;B.114].

Komil inson tushunchasini o‘sha davr mutafakkirlari va yozuvchi shoirlar odil, oqil, fozil kabi atamalar bilan ta’riflaganlar. Komil inson atamasida insoniyat orzu qilgan barcha ma’naviy xislatlar mujassamlashadi. Shoirlar uni muqaddas xilqat sifatida ta’riflaganlar. Jamiyatning osoyishtaligi yuksak ma’naviyatli insonlarga bog‘liqligini mutafakkir ajdodlarimiz o‘z asarlarida qayta-qayta e’tirof etganlar. Dunyoning boqiyligi, jamiyatning ravnraqi ma’naviyatli, bilimli insonlar mehnatinning mahsuli ekanligi haqidagi ta’limot sog‘lom diniy dunyoqarashning asosini tashkil etadi. Demak dunyoning tinchligi va farovonligi, insoniyat butunligi dono va oqil, pok niyatli odamlar faoliyatiga bog‘liq. Chunki ilohiy poklik, e’tiqod va tafakkur har bir insonni yomonlikdan, yovuzlikdan uzoqlashtiradi.

Tasavvuf ta’limoti namoyondalari haqiqat deb topgan yo‘li bilan shu maqsad sari intilganlar va o‘zlaridan keyingi avlodlarga ham ushbu yo‘ldan yurish haqida ta’lim berganlar. Ular tomonidan ilgari surilgan komil inson g‘oyasida xalqning orzu umidi aks etgan bo‘lib, u adabiyot va san’atning yetakchi mavzusi hisoblangan. Ushbu yo‘nalishdagi pedagogik ta’limotning ijodkorlari hisoblangan shoirlarning asarlarida, so‘fiyona she’rlarda ezgulikni zulmga, xayrni sharrga, fazilatlarni nuqsonlarga, kaltahamlik va nodonlikka qarshi kurashi aks etgan. Tasavvuf ta’limoti namoyondalari zulm va johilikka qarshi ma’rifat bilan kurashishga da’vat etganlar. Ular qalbni Ka’ba sifatida e’tirof etadilar. Dunyoni ko‘ngil orqali biladigan va ko‘ngilga sig‘inadigan odam Allohni sevadi deb qayta-qayta ta’kidlaganlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Alisher Navoiy o‘zining «Nasoyim ul-muhabbat» asarida quyidagilarni alohida ta’kidlagan: “Shayx ul-isлом debdurki, Ismoil Dabbos dedikim haj niyati qilib borurda Shyerozg‘a yetishdim. Bir masjidqa kirdim. Shayx Mo‘minni ko‘rdumki, o‘lturub, xirqasin yamaydur erdi. Salom qildim va o‘lturdim. Mendin so‘rdikim, ne niyatning bor? Dedim: Haj niyatim bor. Dedi: Onang bor? Dedim: bor! Dedi: Yonib onang mulozamatig‘a bor! Bu so‘z menga xush kelmas erdi: Dedi: Ne to‘lg‘anasen? Men ellik haj qilibmen, bosh yalang, oyoq yalang va zodu hamrohsiz. Barchasin senga berdim. Sen onang ko‘ngli shodlig‘in menga ber!” [3; B.118] ko‘rinib turibdiki shoир ona ziyyaratini Haj ziyyoratibilan tenglashtirgan. Uning fikrlari bugungi kunda ham talaba-yoshlarni ota-onaga nisbatan sadoqatli, muruvvatli, mehrli bo‘lishga chaqiradi. Mazkur qarashlar yoshlarni o‘z o‘zini tanishga, o‘z qalbiga razm solish, xatti harakatlarini muntazam nazorat qilishga undaydi.

MAVZU MUHOKAMASI. O‘zbekiston jamiyatining barqarorligi diniy qarashlar asosida shakllangan axloqiy me’yorlarga bevosita bog‘liq. Bunday axloqiy me’yorlar yoshlar ongida san’at va adabiyot yordamida singdiriladi. Chunki din va san’atning asosiy g‘oyasi yoshlarda yuksak axloq va tolerantlik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Din va san’at, adabiyotning yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan rivojlantiruvchi, takomillashtiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘lishi hurfikrli insoniyat tafakkurining noyob kashfiyoti hisoblanadi. Ajdodlarimiz tafakkurida shakllangan tasavvufga oid ilmiy qarashlar, g‘oyalalar, axloqiy yuksaklikka undovchi ta’limotlar negizini diniy dunyoqarashni shakllantiruvchi bilimlar tashkil etadi. Diniy axloqiy qarashlar yordamida milliy ma’naviyatimizga xos bo‘lgan sifatlar shakllanadi. [1; B.111].

Tasavvuf adabiyoti namoyondalari jamiyat a’zolarini ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda ruboiy, g‘azal kabi she’riy janrlardan unumli foydalanganlar. Ular sufyona g‘oyalarga mos keladagan asarlar yaratganlar. Ba’zi hollarda xalq og‘zaki ijodi namunalari va xalq orasida mashhur bo‘lgan shoirlarning she’rlari yordamida talabalar bilan muloqotga kirishganlar. Tasavvuf ta’limoti namoyondalari o‘z g‘oyalalarining ta’sirchanligini ta’minalash uchun badiiy ijod namunalaridan foydalanganlar. Tasavvuf adabiyoti namoyondalari gumanist shoир va yozuvchilar sifatida baholanganlar. Unda pok va samimiyl, ilohiy ishq, barkamollik haqidagi qarashlar tarannum etilgan. Tasavvufdagagi ilohiy ishq mavzusini ta’sirchan konsepsiya sifatida aksariyat insonlarning ong ostiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur yo‘nalishdagi asarlarda insonning dunyoqarashi, estetik kechinmalari bayon etilgan bo‘lib, u jamiyat a’zolarini tarbiyalashda ko‘p asrlar davomida o‘ziga xos pedagogik ahamiyatga ega bo‘lib

kelmoqda. Tasavvuf adabiyotida insonning kechinmaları, tuyg‘ulari yaqqol namoyon bo‘ladi. Insonni tarbiyalash, uni ezgulik sari undash, o‘z o‘zi va Haqni tanitish, turli rivoyat, hikmatlar yordamida amalga oshirilgan. Tasavvuf adabiyoti insonlarni go‘zallik, ezgulik, yaxshilikka undash manbai bo‘lib kelgan. Inson ruhiyatining go‘zallikka, nafosatga intilishga moyilligi mazkur adabiyotning yetakchi g‘oyalardan biri hisoblanadi. Yetakchi masalalardan yana biri go‘zalikni anglash va uni qabul qilishdir. Go‘zallik, poklik o‘quvchilarni ezgu amallarni bajarishga undaydi. Tasavvuf adabiyotida real moddiy go‘zallik ham tan olinadi va e’tirof etiladi. Dunyo va uning boyliklariga nisbatan salbiy munosabat ifodalandi. Qadriyatlarning barchasi ruhiyat va Allah bilan bog‘liqligi ta’kidlanadi. Ruhsizlik, hunuklik, o‘tkinchi bo‘lib, ular qimmatli hisoblanmaydi. Mazkur adabiyot inson ruhining abadiyatga dahldorligini qayta-qayta ta’kidlaydi.

Ezgulik insonni qalbiga nur va halovat olib kiradi degan g‘oya tasavvuf adabiyoti namoyondalari qarashlarining asosini tashkil qilgan. Bugungi kunda ham mutafakkir ajdodlarimiz va tasavvuf adabiyoti namoyondalarining barkamol inson haqidagi g‘oyalari o‘z ahamiyatini saqlab yangicha mazmun mohiyat kasb etmoqda. Komil inson g‘oyasi tasavvuf adabiyotining markaziy masalalaridan biri bo‘lib, ba’zi hollarda bahs-munozaralarga ham sabab bo‘lmoqda. Tasavvuf adabiyoti namoyondalari komil inson insonlarningeng mukammali, eng oqili va eng donosideb hisoblaganlar. Shuning uchun ham komil inson falsafasinining asosini “aqli avval” tushunchasi tashkil etadi.

Komil inson ma’nan ilohiy hislatlarni o‘zida mujassamlashtirgan hamisha bedor shaxsdir. U kishilik jamiyatidagi mo‘tabar zot sifatida barchaga o‘rnak bo‘la oladi. Bunday kishilar ma’naviy-axloqiy poklanish orqali kamolotga erishadi. Har bir pok axloqli shaxs komilikka erishishi zarurligi haqidagi pedagogik ta’limot sog‘lom diniy dunyoqarashning asosini takshil etadi. Komillikning eng asosiy belgisi xalq va jamiyatga foyda keltirishdan iborat. Inson o‘z so‘zi, amaliy harakatlari, niyati bilan atrofdagilarga foyda keltirib, yomonlikni oldini olsa, boshqalargi tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatsa, shu qadar kamolga erishadi. Tasavvuf ta’limoti namoyondalarining asarlarida inson va koinot, inson va iloh, inson va mavjudotning o‘zaro munosabatlari ta’sirchan vositalar yordamida bayon qilingan.

Hikmat va tasavvuf ahlining pedagogik qarashlariga ko‘ra insonga o‘z faoliyatini amalga oshirish imkoniyati berilgan, u tinmay harakat qilishi, mehnat orqali o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishi ta’kidlangan. Hikmat ahli ilm o‘rganganlarni komil inson sifatida baholaganlar. Ular uchun insonsevarli eng asosiy fazilat hisoblangan.

NATIJALAR

Mutafakkir ajdodlarimiz diniy dunyoqarash negizida komil insonning axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Shuni alohida ta’kidlash kerakki birinchi hamda ikkinchi Renessans davridagi komil inson g‘oyasi nisbiylik xarakteriga ega. Komil inson modelida bir tomonidan insonning ruhiy ma’naviy qudrati, aql-zakovati va ijobiy sifatlari mujassamlashgan bo‘lsa, ikkinchi tomonidan huddi shunday cho‘qqiga intilib o‘zligini anglagan shaxs qiyofasi namoyon bo‘ladi. Mutafakkir ajdodlarimiz va tasavvuf adabiyoti namoyondalari tomonidan qo‘llab quvvatlangan komil inson modeli bugungi kunda ham alohida ijtimoiy pedagogik ahamiyatga ega. Bu, ayniqsa, talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirish, ularda sog‘lom e’tiqod va sog‘lom diniy dunyoqarashni tarkib toptirishda o‘ziga xos didaktik vosita sifatida xizmat qiladi. Chunki tasavvuf adabiyoti insonlarni qabih ishlar, nojo‘ya qiliqlardan saqlanishga da’vat etadi. Ushbu adabiyot yoshlarda imon, e’tiqod va vijdon tuyg‘usining shakllanishga xizmat qiladi. Chunki tasavvuf adabiyoti o‘ziga xos uslub yordamida insonlarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan didaktik vosita hisoblanadi. Unda boylikka hirs qo‘ymagan, osoyishta qalb, chuqur mushohada, tafakkur va hayolot olami boy, koinot bilan muloqotga kirisha oladigan inson qiyofasi namoyon bo‘ladi. Eng barkamol shaxslar sifatida tariqat ahli ulug‘lanadi.

XULOSA.

Tasavvuf ahli qiyinchilik bilan erishiladigan sifatlar manmanlik, nafs va hirsni tark etish zarurligi, rostgo‘ylik, halollik, sobitqadamlik, sabrlilik, atrofdagilar va ota-onani rozi qilib yashash kabilarni ulug‘laganlar. Jumladan, Alisher Navoiy mashhur «Nasoyim ul-muhabbat» asarida haqiqiy insonlarga xos bo‘lgan quyidagi sifatlarni ko‘rsatib o‘tgan: tavba qilish, halol luqma topish, muayyan kasb hunar bilan shug‘ullanish, shariat qonun-qoidalariga rioya

qilish, tariqat odobini saqlash, kamtarinlik, hushmuomalalik, rahmdillik, sahiylik, mardlik, xushxulqlilik, yumshoq tabiatlilik, sadoqatlilik, qiyinchiliklardan qo‘rmaslik kabilar.

Tasavvuf ta’limoti namoyondalari o‘z g‘oyalarini badiiy adabiyot, musiqa va tasviriy san’at namunalari orqali xalq, ayniqsa, yoshlar orasida keng targ‘ib qilganlar. So‘fiylar va tasavvuf adabiyoti namoyondalari orasida ruhiy yaqinlik kuzatiladi. Tasavvuf ta’limotining g‘oyalarini shoirlar ko‘proq va chuqurroq idrok etganlar. Ular ma’rifat egallash silarini o‘z she’rlarida bayon qilganlar. Tasavvuf adabiyoti namoyondalari dunyoni bilish mumkinligi, mantiqiy tafakkurni tan olgan holda intuitsiyaga ustuvor ahamiyat qaratadi. Ular she’r va musiqa orqali inson ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatishga harakat qilganlar. Natijada ko‘plab iste’dodlar tarbiyalandi. Sharq xalqlari uchun qimmatli bo‘lgan yetuklik ya’ni Renessans davriga xos bo‘lgan e’tiqod va sog‘lom diniy dunyoqarash vujudga keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Atakulova N.A. Talabalarda diniy dunyoqarashni shakllantirishda dunyoviy hamda diniy bilimlar integratsiyasining ahamiyati. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. – Toshkent: “Pedagogika”, 2023. – 330 b.

Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik O‘n beshinchi tom. – T.: Fan, 1999. – 224 b.

Navoiy A. Nasoyim ul-muhabbat. – T.: «Yangi asr avlodи», 2018. - 232 bet

R.G.Safarova. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar. Monografiya. – Toshkent: “Science and innovation”, 2024. – 186 b.

Komilov N. Tasavvuf. – T.: «Movaruannaxr», 2009. – 448b.